

УДК. 631.521.633.11.

**ZIG’IR O’SIMLIGINING RIVOJLANISH DAVRLARI VA BIOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

*Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти
Таянч докторант: Жуманова Барно Бобоқул қизи
Илмий раҳбар; б.ф.н. Жўраев Сироғж Турсуқлович*

Annotatsiya. Zig’ir o’simligining o’sish davridagi rivojlanish bosqichlari, biologik xususiyatlari, tashqi muhit omillariga bardoshliligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar. Maysalanish, archa holati, shonalash, gullah, pishish, fotosintez jarayoni, podzol tuproq, texnik yetilishi.

Абстрактный. Представлены сведения об этапах развития растения льна в процессе его роста, его биологических свойствах, устойчивости к факторам внешней среды.

Ключевые слова. Прополка, состояние ели, обрезка, цветение, созревание, фотосинтетический процесс, подзолистая почва, техническая спелость.

Abstract. Information about the stages of development of the flax plant during its growth, its biological properties, and its tolerance to external environmental factors is presented.

Key words. Weeding, spruce condition, pruning, flowering, ripening, photosynthetic process, podzol soil, technical maturity.

Kirish. Zig’ir juda qadimgi o’simlik hisoblanib Hindiston va Xitoyning tog’li mintaqalarida qadim zamonlardan ekilgan. Eramizdan 4-5 ming yil oldin u Misirda, Assiriya va Misopotamiyada ham ekilgan. Maxsus adabiyotlarga berilgan ma'lumotlarga qaraganda zig’ir Janubiy G’arbiy va Shimoliy Osiyodan kelib chiqqan. Shu munosabati bilan olimlarimiz oldida turgan asosiy vazifa bu tezpishar, serxosil, qurg’oqchilikka chidamli navlarni yaratishdan va bu ularni yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqishi muhim vazifa bo’lib turibti.

Lalmikor yerlarda ekiladigan moyli zig’irning qishloq qishloq xo’jaligida ahamiyati juda katta.zig’ir yrtishtirishda kam mehnat va oz mablag’ sarflanadi.shunga qaramay bu ekinga dehqon – fermerlarimiz tomonidan yetarlichcha e’tibor qaratilmayapti.

Rivojlanish davri. Zig’ir o’simligi o’sosh davrida quyidagi rivojlanish bosqichlarini o’taydi maysalanish, archa xolati, shoxlanish, gullah va pishish.

Maysalanish davri. Normal sharoitda zig’ir urug’i 6-7 kunda unib chiqadi. Bu davrda o’simlik ikkita urug’ bargga va ularning o’rtasida o’sish nuqtasiga ega bo’ladi. Bu davrda o’simlik sekin o’sadi, ammo ildizi tez rivojlanadi.

Archa davri. 18-20 kunda o’simlikning bo’yi 6-10 sm ga yetganda 5 juft barg hosil qiladi vas hu davrda archa davrini o’taydi. Bu ikkala rivojlanish davrida o’simlik sekin o’sadi, lekin ildizining o’sishi tezroq bo’lib, ildiz shu davrda shakillanadi.

Shonalash davri. Bu davrda o’simlikning tez o’sish davri boshlanib, bir sutkada 3-5 sm usadi. Bu davrda shonalash boshlanguncha 12-20 kun davom etadi.bu davrda poya shakillanadi rivojlanish boshlanadi. Keyinchalik poyaning o’sishi sekinlashadi va gullash davri oxirida poyaning o’sishi to’xtaydi.

Gullash davri.maysa hosil bo’lgandan so’ng 40-50 kun o’tgach boshlanib, 6-10 kun davom etadi.

Pishish davri. Yashil o’rta sariq , sariq va to’la pishish davriga bo’linadi.yoppasiga gullagandan so’ng 35-40 kun o’taganidan so’ng sariq pishish davri boshlanadi va bunda bir necha kun o’tagandan so’ng to’la pishish davri keladi.

Suvga talabi. Zig’ir suvga talabchan. Ekilgandan boshlab erta sariq pishish davrigacha tuproqda suv yetarli bo’lmaganligi salbiy ta’sir ko’rsatadi. Amal davrida bir o’lchamda organic modda hosil qilishi uchun 400-430 o’lchamda suv sarflaydi. Tuproqning namligi ekishdan tez o’sish davrigacha 60%, tez o’sish davridan gullashgacha 80%, pishish davrida 40%-60% bo’lganda yuqori sifatli tola yetishtiriladi.

Yorug’likka talabi. Zig’ir uzun kunli o’simlik.amal davrida iliq bulutli kunlarda zig’ir yaxshi rivojlanadi, fotosintez jarayoni faol o’tadi. Quyosh nurlari ta’sirida kuchli shoxlanish mumkin, bu tola sifatini chiqishini pasaytiradi.

Ozuqaga talabi. Ildiz tizimi sust rivojlanganligi tufayli tuproqqa ozuqa elementlarini yengil o’zlashtiradiganshakilda bo’lgani talab qilinadi. Azot me’yoridan ortiq bo’lsa poya yog’onlashadi, yotib qoladi, tola sifati past bo’ladi. Azot archa davridan shonalash davrigacha azotni ko’p talab qiladi.

Amal davrining boshlarida fosforga juda talabchan bo’ladi.kaliy elementi yetarli miqdorda bo’lsa tola sifati yuqori bo’ladi, poyani yotib qolishidan saqlaydi.olimlarning tavsiyasi bo’yicha azot, fosfor va kaliyning nisbati quyidagicha bo’lishi kerak.

Zig’ir mikro elementlardan borga talabchan. Tavsiya qilinadigan o’g’it me’yorlari azota 90, kaliy 60, fosfor 20% gacha.

Tuproqqa talabi. Zig’ir uchun unumdor , havo tizimi maqbul donador tuproqlar ma’quldir. Zig’ir ekiladigan mintaqalardagi podzol tuprog’i zig’ir uchun eng maqbul bo’ladi. Tuproq muhiti neytralga yaqin tuproqlar yaxshidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. X.N.Ataboyeva, J.B. Xudayqulov, “O’simlikshunoslik” Toshkent- “NIF MSH” 2020- yil. B. 267-217.
2. Ceh.B et al. Impact of linseed variety, location and production year on seed yield, oil content and its composition Agronomy-2020. -T.10-№. 11. C. 1770.
3. Ceh.Barbara, et al .Impact of linseed variety, location and production year on seed yield, oil content and its composition ” ФПҚҮТҮҮН 10 11 -2020: C. 1770.
4. Ceh.B, Straus.S, Hladnik.A., Kusar.A -2020. Impact of linseed variety, location and production year on seed yield, oil content and its composition. Agronomy 10-11. C. 1770.
5. Cui Z al Agronomic cultivation measures on productivity of oilseed flax A. review // Oil Crop science-2022.